

**KASB TANLASHDA MAKTAB PSIXOLOGLARINING O'RNI***Urazova Dilbar Jadigerovna**Reymova Baxit**Qoraqalpog'iston Respublikasi**Nukus shahri 30 va 41 sonli maktab psixologlari*

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar, shakllanayotgan madaniy bozor munosabatlari, ishlab chiqarishning keskin rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiyoti qizg'in kechayotgan davrda jamiyat va shaxs ehtiyojlarining uzviy mutanosibligiga erishish yoki uni ta'minlash oson ish emasligini tasdiqlamoqda. Chunki hamisha ham yoshlar o'z iqtidori, salohiyati, aqliy va intellektual potentsialiga mos va jamiyat uchun manfaat keltiruvchi kasblarni tanlay olmaydilar. Bu qarama - qarshilikni "silliqlash" uchun yoshlarda kasb tanlashning ijobiy (pozitiv) motivlarini shakllantirishda jamiyat va jamoatchilik ta'sirini va maktab psixologlarining, otionalarning o'rnini kuchaytirish o'ta muhim ahamiyatga ega. Bu hayotiy dolzarb vazifa yoki muammoni hal etishda albatta oila va maktab, mahalla va jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari hamda boshqa tuzilmalar yaxlit tizim sifatida bir maqsad atrofida uyushishlari lozim bo'lmoqda[3].

O'zbekistonda bu borada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish maqsadida joylarda psixologik-pedagogik tashxis markazlari o'z Nizomiga ko'ra faoliyat yuritmoqda. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, psixologik va pedagogik tashxis markazlari har bir shahar, tuman xalq ta'limi bo'limlari qoshida, o'z hududlari doirasida o'quvchilarning kasb yo'nalishlari, aqliy va kasbiy qobiliyatlarini maktab jamoasi va psixologlari bilan birgalikda muntazam ravishda o'rganish, nazorat etish, tegishli amaliy maslahatlar berish, maktabdan keyingi istiqboliy rivojlanish yo'nalishlarini ta'minlash maqsadida tuziladi. Lekin shunga qaramay, yoshlarning kasbga nisbatan ustanovkalarida doimiylik, turg'unlik va ongli tanlov kuzatilavermaydi.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mantiqan olganda, bu davr kasbiy ta'limni boshlagunga qadar o'z nihoyasiga etgan bo'lishi kerak. Ya'ni maktabni bitirib, o'rta maxsus maktabida ta'limni davom ettiradigan yoki oliy o'quv yurtlariga yo'l olayotgan har bir o'smir va o'spirin o'zining bo'lajak kasbini tanlagan, bu boradagi tasavvurlari shakllanib ulgiran bo'lmo'g'i darkor. Taassufki, kundalik hayotda aksariyat yoshlarimiz nafaqat o'rta maxsus o'quv yurtlarini, balki oliy o'quv yurtlarini bitirgandan keyin ham kasbiy o'zliklarini anglashda katta qiyinchiliklarni boshlaridan kechirmoqdalar. O'rta, o'rta maxsus hamda oliy o'quv yurtlarida kasbga yo'naltirish, uni targ'ib etish va kasbiy

tashxis ishlarining o'ta sust olib borilishi oqibatida ko'pchilik yoshlarimiz o'z kasbiy imkoniyatlari, qaysi kasb sohasiga ko'proq yaroqli ekanliklari haqida deyarli hech qanday tasavvurga ega emaslar[1]. Gap bu erda yoshlarning kasb tanlashga tayyorlik darajasining nihoyatda sust ekanligi haqida borayapti. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorlik darajasi faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas: u ma'lum yoshga kelib o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi ham. Yoshlarni kasb tanlashga pedagogik — psixologik, ijtimoiypsixologik usullar, jamiyatning umumiy tasiri orqali tayyorlash, tarbiyalash lozim. Kasbiy tarbiya jarayonining samaralari va natijalarini ob'ektiv baholash hamda kasbiy shakllanishni to'g'ri rejalashtirish ko'pgina kasbiy tashxis metodikalaridan foydalanishni taqozo etadi. Ya'ni har bir o'smir yoki o'spirinning aqliy imkoniyatlari, shaxs xususiyatlari, qiziqishlari, qadriyatlarini hamda bo'lajak kasbga bo'lgan munosabatlarini aniqlash katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida individual shaxs turadi. Holbuki shunday ekan, kasb tanlovi jarayonida o'quvchi shaxsiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasbiy tarbiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchi navbatda, o'quvchining kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish lozim. Aks holda umumiy xususiyatli yo'llanma, ko'rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o'ziga xos talablarni taqozo etadi. Kasbiy bilimlar – o'quvchilarni kasbning mohiyati, uning shaxs oldiga qo'yadigan talablari bilan tanishtirishdan iborat ta'sirchan axborotlar majmuasidan iborat bo'lmog'i kerak. Mazkur axborotlarni yoshlar ongiga etkazishda jamiyatning barcha bo'g'inlari ishtiroki va hamkorligini tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

Hozirda o'sib kelayotgan yoshlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblarichidan o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan kasbni tanlab olishlari va o'z hayotlarini mazmunli, yaxshi o'tkazish uchun intiladilar. Ularga bu kasblarni tanlashlarida maktab psixologlarining yordami, yo'l-yo'riq ko'rsatishi, ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazishi muhim o'rin tutadi. Katta o'smir va o'spirinlarning «Men kelajakda kim bo'laman?», «Yaxshi yashashim uchun qaysi kasbni tanlashim kerak?», «Mendagi iqtidor shunga etadimi?», «Kelajagimdan qoniqamanmikan?» degan ko'plab savollar yoshlarni o'ylantiradi. Bu savollarga javob olish uchun ular atrofdagilarni ko'plab kuzatadilar, hayotdan ma'lum bir malakalar olishga intiladilar. Kasb tanlashda maktab psixologlari esa ularni to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladi, kasb tanlovchilarga o'zining beg'araz maslahatlarini berib, ularni o'zlari qiziqqan kasblariga ega bo'lishlari uchun yo'lyo'riqlar berib boradi. Izlanuvchi yoshlar kasb-hunar va uni egallash hayotlari, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar[2]. Shulardan kelib chiqib, kasb – bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan, jamiyatdagi huquqiy me'yorlarga javob beradigan, insonning kelajagini belgilab beradigan o'ziga xos murakkab jarayon, deb

belgilashimiz mumkin. Kasb – bu insonning ma’lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o’zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo’lishidir. Kasbga xos bo’lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog’liq. Kasb psixologiyasi va psixolog olimlar aynan shunday murakkab jarayonlarni o’rganish orqali yoshlarni o’zlari qiziqqan kasbga yo’nalish beruvchi soha hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.Jalilova, F.Xaydarov, N.Xalilova «Kasb psixologiyasi». - Toshkent 2010. -22b.
2. Kasb ta’limi islohatlari va kasb psixologiyasi F.R.Abdurahmanov, M.X.Dusmuhammedova «Zamonaviy ta’lim» 2015/5.
3. [www. ziyanet. uz](http://www.ziyanet.uz)